

Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

Korxonalar va tashkilotlar



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–oktyabr

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **3366 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,4 % kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **3124 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-oktyabr oyida viloyatda 4063 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1146 taga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 55,2 % ga kamaygan hamda ularning soni 761 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3389 taga (16,1 %) o'sgan hamda ularning umumiy soni 24450 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (31,2 %), Urgut (9,2%), Pastdarg'om (7,8%) va Samarqand (6,8 %) tumanlarida kuzatilmogda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Samarqand viloyati	25663	100,0	24450	100,0
Samarqand sh.	8063	31,4	7637	31,2
Kattaqo'rg'on sh.	919	3,5	903	3,7
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1096	4,3	953	3,9
Bulung'ur	960	3,7	899	3,7
Jomboy	851	3,3	821	3,4
Ishtixon	1302	5,1	1241	5,1
Kattaqo'rg'on	1182	4,6	1143	4,7
Qo'shrabot	571	2,2	554	2,3
Narpay	917	3,6	889	3,6
Payariq	1412	5,5	1332	5,4
Pastdarg'om	2068	8,0	1905	7,8
Paxtachi	653	2,5	623	2,5
Samarqand	1747	6,8	1661	6,8
Nurobod	703	2,7	654	2,7
Urgut	2296	8,9	2259	9,2
Tayloq	1013	3,9	976	4,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,1 % savdoda, 18,6 % sanoatda, 8,6 % qurulishda, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % tashish va saqlash, 1,7 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 4063 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (1171 ta), Pastdarg'om (326 ta), Urgut (318 ta) va Samarqand tumanlarida (308 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (82 ta), Qo'shrabot (91 ta) hamda Narpay (94 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoatda (893 ta), savdoda (762 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (546 ta), qurilishda (462 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (399 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa, axborot va aloqada (73 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (100 ta) hamda tashish va saqlashda (121 ta) tashkil etilganligi kuzatilmogda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-oktyabrda	2018 yil yanvar-oktyabrda
Jami:	2917	4063
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	408	546
Sanoat	790	893
Qurilish	277	462
Savdo	583	762
Tashish va saqlash	93	121
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	331	399
Axborot va aloqa	68	73
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	87	100
Boshqa turlari	280	707

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 noyabr holatiga 19197 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4840 ta, oilaviy korxonalar – 2342 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11500 ta, boshqalarda 515 tani tashkil etdi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 384 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 108 taga yoki 39,1 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'ssatayotgan korxonalardan 287 tasi qo'shma korxonalar, 97 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahri (196 ta, 51,0 %), Urgut (40 ta, 10,4 %) va Jomboy tumanlari (31 ta, 8,1 %) hissalariga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot (1 ta, 0,3 %), Kattaqo'rg'on (4 ta, 1,0 %), Narpay (4 ta, 1,0 %) hamda Paxtachi (5 ta, 1,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa, mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 238 ta (62,0 %), savdoda 54 ta (14,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 29 ta (7,6 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 23 ta (6,0 %) tashkil qilgan.

Eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (0,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (1,0 %), tashish va saqlashda 7 ta (1,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11 ta (2,9 %) va qurilishda 15 ta (3,9 %) tashkil qilgan.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-oktyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 107 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga ko'paygan yoki 2,4 barobarga oshgan.

Bunda, Turkiya Respublikasi - 21 ta, Koreya Respublikasi – 14 ta, Rossiya Federatsiyasi – 12 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari - 6 ta, Birlashgan Arab Amirligi – 5 ta, Qozog'iston Respublikasi - 4 ta va Tojikiston Respublikasi-3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston, Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 43 ta, savdoda 23 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 15 ta, qurilishda 12 ta va boshqa faoliyat turlarida 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta, tashish va saqlashda 1 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 ta tashkil qilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19078 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 19,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6388 tasi (33,5 %) Samarqand shahriga, 1814 tasi (9,5 %) Urgut, 1434 tasi (7,5 %) Pastdarg'om, hamda 1389 tasi (7,3 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19078 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5373 tasi (28,2 %) - savdoda, 4506 tasi (23,6 %) - sanoatda, 2104 tasi (11,0 %) - qurilishda, 1823 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1544 tasi (8,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 777 tasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 397 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 444 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2110 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 3613 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,5 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahrida (1084 ta), Samarqand (293 ta), Urgut (276 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (272 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (64 ta), Narpay (80 ta) hamda Qo'shrabot (79 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (893 ta), savdoda (762 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (543 ta) va qurilishda (462 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (73 ta), sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (100 ta) hamda tashish va saqlashda (120 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar 2018 yilning 1 noyabr holatiga 2428 tani tashkil etib, ulardan 2342 tasi yoki 96,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 54,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 34,1 % yoki 799 tasi sanoat, 27,1 % yoki 634 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 410 tasi savdo, 9,7 % yoki 228 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 26 tasi qurilish, 1,6 % yoki 37 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 23 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,5 % yoki 176 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**
(0371) 230-85-42,43



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**